



DAVLAT TOMONIDAN TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TARTIBGA
SOLISHNING ASOSIY TAMOYILLARI

Anvar Aliyarov Tayirovich

Toshkent shahar adliya boshqarmasi Yakkasaroy tuman adliya bo'limboshlig'i

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish jarayonida bozor iqtisodiy jihatdan o'zining talab va taklif qonuniyatlari asosida ijtimoiy zaruriy ishlab-chiqarish rivojini, tovar bahosini, uning sifatini, mahsulotlarning iste'molbop xususiyatlarini belgilaydi, ilmiy-texnik taraqqiyotga turtki beradi va shuning bilan birga keraksiz, samarasiz, raqobatga bardoshsiz bo'lgan ishlab-chiqarishni chetga surib tashlaydi. Ana shu tariqa bozor tadbirkorlar manfaatlariga ta'sir ko'rsatadi, bu sohada ishlab-chiqarishni va tovarlar (ishlar, xizmatlar) sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Bozor iqtisodiyotining rivojlantiruvchi mezon bo'lgan raqobat tadbirkorlarning ishlab-chiqarish xarajatlarini kamaytirishga va baholarni pasaytirishga majbur etadi.

Biroq, har qanday jamiyatda uning iqtisodi qanday bozor modeliga moslashtirilgan bo'lishidan qat'i nazar, uning iqtisodi va xususan tadbirkorlik sohasida davlatning tutgan o'rnini alohida ahamiyatga ega bo'lib, tadbirkorlar faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish zaruriyati yuzaga kelishi tabiiy. Chunki bozor iqtisodi sharoitida tadbirkorlar faoliyatini erkin rivojlanishini davlat-huquqiy mexanizmining yordamisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Tadbirkorlik faoliyatida davlatning ta'siri – bu tadbirkorlik subyektlarini tuzish, bekor qilish, tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishni nazorat qilish faoliyatidir.

Davlat tomonidan tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning quyidagi shakllarini ajratish mumkin:

- normativ-huquqiy hujjatlar chiqarish;
- davlat buyurtmalari;
- davlat shartnomalari;
- davlat tomonidan tartibga solishni belgilovchi hujjatlar.

Tadbirkorlik huquqining subyekti sifatida davlatning iqtisodiyotga ta'sir etishining yana bir usuli bu bozor mexanizmini tashkil etib, unda monopoliyaga yo'l qo'ymaslik, soliq tizimi orqali va har bir subyektning huquqini himoya qilish, iqtisodiy erkinliklarning kafolatlanishini belgilashdan iboratdir.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bozor sharoitida xususiy manfaatlar odil sudlov yo'li bilan, agarda qachon va qanday darajada ommaviy (jamoat) manfaatlar bilan qo'shib kelsa, mumkin qadar davlat aralashuvi yo'li bilan himoya qilinadi. Tadbirkorlik faoliyatiga va xususan, tadbirkor ishiga davlat aralashuvining chegarasi, boshqacha qilib aytganda, tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish qamrovi jamiyat uchun kerak bo'lgan yo'nalishda, iqtisodiy rivojlanishni inobatga olgan holda bozor munosabatlarining muhim elementlarini saqlab qolish zaruriyati bilan belgilanadi.



Kengroq ma'noda tadbirkorlik turli jamiyatlardagi eng dolzarb muammolar va insonlar hayotidagi og'riqli nuqtalarni hal etish uchun innovatsion yechim yoki foydali xizmatni joriy etish orqali mavjud vaziyatni ijobiy tomonga o'zgartirish jarayoni desak yanglishmagan bo'lamiz. Shuningdek, milliy qonunchilik hujjatlarida ham tadbirkorlik faoliyatiga berilgan turli ta'riflarni uchratishimiz mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydagi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-328-son Qonuniga ko'ra, tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyati hisoblanadi.

Har bir huquq tarmog'i o'z subyektlariga ega bo'lganidek, tadbirkorlik huquqining ham o'z subyektlari bor. Fuqarolik huquqida barcha huquq subyektlari

"shaxslar" deb umumiy e'tirof etiladi. "Shaxslar" o'z navbatida uch guruhga bo'linadi:

1. Jismoniy shaxslar. Ular O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar;

2. Yuridik shaxslar. Ular foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan (tijoratchi tashkilot) yoki foyda olishni ana shunday maqsad qilib olmagan tashkilot (tijoratchi bo'lmagan tashkilotlar) hisoblanadi. Ular O'zbekiston Respublikasi, chet el yoki aralash (qo'shma) korxonalar shaklida bo'lishi mumkin;

3. Davlat. Davlat alohida subyekt sifatida bevosita o'z nomidan, shuningdek uning nomidan ma'muriy hududiy tuzilmalar yoki davlat organlari ishtirok etishlari mumkin.

Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish tamoyillari tadbirkorlik subyektlarining adolatli, shaffof va mas'uliyatli faoliyat yuritishini ta'minlashga qaratilgan.

Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Shaffoflik tamoyili: Davlat tomonidan tartibga solish shaffof va jamoatchilik nazorati uchun ochiq bo'lishi kerak, shunda tadbirkorlik subyektlari va jamoatchilik ularga tegishli qonun va qoidalarni tushunishlari mumkin. Davlat boshqaruvi organlari normativ hujjatlar loyihalari to'g'risida keng jamoatchilikni bevosita yoki yurli yo'llar bilan xabardor qiladi hamda normativ hujjatlarni ishlab chiqish va qarorlar qabul qilish jarayoniga xususiy sektor, fuqarolik jamiyati va jismoniy shaxslarni jalb etish orqali qarorlar qabul qilish jarayonining ochiqligini ta'minlaydilar. Mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solishda shaffoflik tamoyilining ta'minlanayotganligini "regulation.gov.uz." portalini misol qilib keltirishimiz mumkin. Portalning maqsadi:

- muammoni, uni tartibga solishning maqsadi va mavjud yechimini tahlil qilish orqali normativ-huquqiy hujjatni qabul qilishda vujudga kelishi mumkin bo'lgan (vujudga kelgan) ijobiy va salbiy oqibatlarni aniqlash;

- ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjat loyihasida va qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tizimida korrupsiya, boshqa huquqbuzarliklar sodir etilishi uchun sharoit yaratadigan, tadbirkorlik subyektlari uchun



ortiqcha ma'muriy hamda boshqa cheklovlarni joriy etadigan yoki joriy etishga sharoit yaratadigan qoidalarni aniqlash;

- tadbirkorlik subektlarida asossiz xarajatlar paydo bo'lishiga olib keluvchi qoidalarni aniqlash.

Portalda davlat organlari tomonidan ishlab chiqilgan tadbirkorlik faoliyatiga aloqador qonun hujjatlarining loyihalari va qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar joylashtirilib, ro'yxatdan o'tgan barcha foydalanuvchilar mazkur hujjalar borasida o'z takliflarini berish imkoniyati yaratilgan bu esa tadbirkorlik subyektlari faoliyatini huquqiy tartibga solishda shaffoflik tamoyilining

2. Muvofiqlik tamoyili: Davlat tomonidan tartibga solish izchil va bashorat qilinadigan tarzda qo'llanilishi kerak, shunda korxonalar ishonch bilan rejalashtirishi va faoliyat yuritishi mumkin. Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur huquqiy muhitni yaratish yagona konsepsiya asosidagi qonunchilik va me'yoriy bazani yaratish va doimo takomillashtirib borish tizimining mavjudligini taqozo etadi.

3. Proporsionallik: korxonalarni ortiqcha yoki ortiqcha tartibga solish yuklamasligi uchun davlat tomonidan tartibga solish xavf va foydalarga mutanosib bo'lishi kerak.

4. Diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik: Davlat tomonidan tartibga solish biron bir alohida biznes yoki biznes guruhini kamsitmasligi kerak va hamma uchun adolatli va teng ravishda qo'llanilishi kerak. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tartibga solishda kamsitmaslik, diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik siyosati eng nozik tamoyillardan biri hisoblanadi. Uning turli sabablari bor, jumladan: Davlatda faoliyat olib borayotgan tadbirkorlik subyektlarining biridan boshqasini ustun qo'yish, unga turli imtiyoz hamda preferensiyalar berish mamlakatda adolatning buzlishiga qonunlarining cheklanishiga sabab b

5. Moslashuvchanlik: Davlat tomonidan tartibga solish o'zgaruvchan sharoitlarga mos keladigan darajada moslashuvchan bo'lishi kerak, shunda korxonalar o'zgaruvchan bozor sharoitlari va texnologik o'zgarishlarga moslasha oladilar. XXI asrga kelib rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotning an'anaviy shakllaridan farqli o'laroq, kelajak sohalari rivojlana boshladi. Bu ayniqsa, sun'iy intellekt, kosmonavtika, nano texnologiyalar, elektron dasturlar kabi sohalarda yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy o'sish tabiiy omili sifatida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda markaziy rol o'ynaydi. tadbirkorlik funksiyasining mohiyati ishlab chiqarishni isloh qilish, mazmuni esa yangi texnologiya, xomashyo va bozorlarni jalb etish, ishlab chiqarishni qayta qurish tufayli ishlab chiqarish va muomala omillarining yangi uyg'unliklarini amalga oshirishdan iborat.

O'z navbatida davlat tadbirkorlik subyektlarini huquqiy tartibga solishda eskirgan normalar hamda tadbirkorlik faoliyatiga to'siqqa aylanib ulgurgan qoidalarni zamon talablari doirasida o'zgartirish, bekor qilish masalasini kun tartibiga chiqarmoqda.

6. Hisobdorlik: Davlat nazorat organlari o'z harakatlari uchun javobgar bo'lishi kerak va ular jamoat manfaatlarini ko'zlab harakat qilishlarini tekshirish va nazorat



qilishlari kerak. Demokratik davlatlardagi nazorat organlari tadbirkorlik subyektlari faoliyati ustidan amalga oshirilgan har bir harakati uchun mas'ul hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-sentabrdagi PF-6314-son Farmoniga muvofiq Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish jarayonlarini muvofiqlashtirish va ularning ochiqligini ta'minlash, shuningdek, davlat nazorati funksiyalari, majburiy talablar va tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish huquqiga ega mansabdor shaxslarning elektron reyestrlarini yuritish imkonini beruvchi "Yagona davlat nazorati" axborot tizimi ishga tushirilgan.⁷

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 13-sentabrdagi "Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida tekshiruvlar o'tkazishni muvofiqlashtirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-374-son qarorida aynan nazorat qiluvchi organlarning o'z xatti-harakatlari ustidan javobgarlik masalalari tartibi keltirib o'tilgan. Ushbu qarorning maqsadi tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga asossiz aralashuvlarning oldini olish, nazorat qiluvchi organlarning mas'uliyatini oshirish va faoliyati ochiqligini ta'minlashdan iboratdir. Qarorning 2-bandiga ko'ra tadbirkorlik subyektlari faoliyatida o'tkaziladigan barcha tekshiruvlar "Yagona davlat nazorati" axborot tizimida ro'yxatga olinadi. Bunda, tadbirkorlik subyektlari faoliyatida mazkur tizimda ro'yxatga olinmagan tekshiruvlarni o'tkazish noqonuniy hisoblanadi, shuningdek, "xavfni tahlil etish" tizimi natijalariga asosan o'tkaziladigan tekshiruvlarning boshlanishi haqida kamida 10 ish kuni oldin tadbirkorlik subyektini xabardor qiladi. Bunda "Yagona davlat nazorati" axborot tizimidagi davlat nazorati funksiyalari reyestriga kiritilmagan funksiyalar bo'yicha tadbirkorlik subyektlari faoliyatida tekshiruvlar o'tkazish taqiqlanadi.⁸

7. Hamkorlik: Davlat tomonidan tartibga solish korxonalar, iste'molchilar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikda ishlab chiqilishi kerak, shunda reglamentlar samarali, samarali bo'lishi va ulardan ta'sirlanganlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish tamoyillari tadbirkorlik subyektlarining erkin va daromadli faoliyat yuritishiga bo'lgan ehtiyojni jamiyat manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlik subyektlarining mas'uliyatli faoliyat yuritishini ta'minlash zarurati bilan muvozanatlashtirishga qaratilgan. Ushbu tamoyillarga rioya qilish orqali davlat iqtisodiy o'sishga yordam beradigan, iste'molchilar va ishchilarni himoya qiladigan, adolatli va raqobatbardosh bozorni qo'llab-quvvatlovchi tartibga solish muhitini yaratishi mumkin.

⁷ Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-sentabrdagi "Tadbirkorlik subyektlari uchun ma'muriy va soliq yukini yanada kamaytirish, biznesning qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6314-son Farmoni

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 13-sentabrdagi "Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida tekshiruvlar o'tkazishni muvofiqlashtirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-374-son qarori



Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish usullari va yo'nalishlari.

Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan huquqiy tartibga solish bu – mamlakatda faoliyat yurituvchi korxonalarining xatti-harakatlarini tartibga solish uchun hukumatlar tomonidan o'rnatilgan qonunlar, qoidalar va siyosatlar tushuniladi. Tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsadi tadbirkorlik subyektlarining xavfsiz, adolatli va mas'uliyatli faoliyat yuritishini ta'minlash, iste'molchilar, ishchilar va aholi manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish deganda hukumatlar o'z yurisdiksiyasi doirasida faoliyat yurituvchi korxonalar faoliyatini nazorat qilish va boshqarish uchun o'rnatadigan qoida va tartiblar tushuniladi. Ushbu qoidalar iste'molchilar huquqini himoya qilish, monopoliyaga qarshi kurashish, soliqqa tortish, bandlik amaliyoti, mahsulot xavfsizligi, atrof-muhitni muhofaza qilish va intellektual mulk kabi keng sohalarni qamrab olishi mumkin.

Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishda quyidagi omillarni hisobga olish lozim.

Birinchidan, tadbirkorlik faoliyati muayyan moddiy boyliklar, pul mablag'lari bilan uzviy bog'liq ravishda amalga oshiriladi. Shu sababli ham ushbu moddiy qimmatliklarni muomalada bo'lish qoidalariga rioya qilish ustidan nazorat talab etiladi. Nazoratga olib, o'z ajburiyatlarini bajarishda ta'magirlikka, suiiste'molliklarga yo'l qo'yilmasligi alohida ahamiyatga molik jihat hisoblanadi.

Ikkinchidan, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini nazorat qilish oqilona tashkil etilmog'i darkor. Bunda tadbirkorlik subyektlariga o'z xo'jalik faoliyatini amalga oshirishga also to'sqinlik qilmasligi lozim.

Uchinchidan, nazorat ochiq, oshkor, shaffof bo'lishi, nazorat tartibi, usul va vositalari aniq-ravshan belgilab qo'yilishi shart. Aks holda har xil o'zboshimchaliklar kelib chiqishi mumkin.

To'rtinchidan, tadbirkorlik subyekti nazorat jarayonida o'z qonuniy huquq va manfaatlariga putur yetgan, deb hisoblagan taqdirda, sud orqali himoyalanih imkoniyatlariga ega bo'lishi lozim.⁹

Tadbirkorlik faoliyatini tartibga solish bo'yicha davlatning asosiy vazifalari adolatli va shaffof tadbirkorlik amaliyotini qo'llab-quvvatlovchi, iste'molchilar va ishchilar huquqlarini himoya qiluvchi hamda raqobat uchun teng sharoitlarni ta'minlovchi huquqiy va me'yoriy bazani yaratishdan iborat. Tadbirkorlikni tartibga solishda davlatning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

1. Qonunlar va me'yoriy hujjatlarni yaratish va amalga oshirish: Davlat tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar va qoidalarni yaratadi va amalga oshiradi. Ushbu qonun va me'yoriy hujjatlar tadbirkorlik faoliyatini shakllantirish va ro'yxatdan o'tkazish, mehnat amaliyoti, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish, sog'liqni saqlash va xavfsizlik, soliqqa tortish, monopoliyaga qarshi kurash va raqobat kabi keng sohalarni qamrab oladi. Mamlakatimizda tadbirkorlik

⁹ Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqi: kasb-hunar kollejlari uchun darslik/ F.H.Otaxonov, X.V.Burxandxodjayeva, K.E. Mansurov, N.X.Muhamedova. -T.: "ILM ZIYO". 2010. -288 bet.



faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar va qonunosti hujjatlari tadbirkorlik huquqining manbalari sifatida e'tirof etiladi. Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, uning huquqiy tartibini belgilovchi asosiy qonun "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-328-son Qonun, tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish tartibini belgilovchi qonunosti hujjatlarini misol qilib keltirib o'tishimiz mumkin. Bundan tashqari Tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solishda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi muhim ahamiyatga ega. U mulk huquqi, majburiyat huquqi, mahsulot yetkazib berish, kontraktatsiya, mulk ijarasi, lizing, pudrat, qurilish pudrati, tashish, kredit, hisob-kitob va shunga o'xshash tadbirkorlik subyektlari ishtirokida tuziladigan shartnomalarga oid qoidalarni o'zida birlashtirib, bevosita davlatning qonunlar va me'yoriy hujjatlarni yaratish va amalga oshirish funksiyasini.

Tadbirkorlik subyektlarining faoliyat olib borishiga xizmat qiluvchi va ular huquqlarini himoya qilishga qaratilgan "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida"gi, "Ijara to'g'risida"gi, "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi, "Rieltorlik faoliyati to'g'risida"gi, "Raqobat to'g'risida"gi, "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi va boshqa qonunlar qabul qilingan. Tadbirkorlik subyektlarining tashkil etilishi va huquqiy holati "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi, "Bank va banklar faoliyati to'g'risida"gi, "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi, "Tadbirkorlik faoliyati sohasida ruxsat berish tartib-qoidalari to'g'risida"gi va boshqa qonunlarda mustahkamlangan.¹⁰

2. Litsenziyalash va ruxsat berish: Davlat ko'pincha korxonalaridan ma'lum sohalarda faoliyat yuritish yoki muayyan faoliyat turlari bilan shug'ullanish uchun litsenziyalar yoki ruxsatnomalar olishni talab qiladi. Ushbu litsenziyalar va ruxsatnomalar odatda sifat yoki xavfsizlikning minimal standartlari kabi ma'lum mezonlar asosida beriladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi O'RQ-701-son Qonuni qabul qilingan. Ushbu qonunning 5-moddasiga ko'ra, agar jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan faoliyatning (harakatlarning) ayrim turlarini amalga oshirish fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga zarar, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlariga ziyon, jamoat xavfsizligiga ziyon va (yoki) atrof-muhitga zarar yetkazilishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lsa, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillari joriy etiladi.¹¹

3. Tekshirish va ijro etish: Davlat korxonalarini amaldagi qonunlar va qoidalarga rioya qilishlarini tekshirish uchun javobgardir. Shuningdek, davlat qonunlar va qoidalarni buzgan tadbirkorlik subyektlariga nisbatan jarima solish, litsenziyalarni bekor qilish va qonuniy choralar ko'rish kabi choralar ko'rish mumkin. Tekshiruv – nazorat va huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan xo'jalik subyektlarining qonunlar va ularning faoliyatini tartibga soluvchi boshqa qonun hujjatlariga rioya etishi ustidan amalga

¹⁰ Nabiyeu Umarali Abdullo o'g'li. «Tadbirkorlik faoliyatida yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etishning huquqiy asoslari» Bitiruv malakaviy ishi. 2019-yil.

¹¹ O'zbekiston Respublikasining "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi O'RQ-701-son Qonuni. 5-modda.



oshiriladigan nazorat hisoblanadi. Mamlakatda tadbirkorlik faoliyatining to'sqinliksiz amalga oshirilishini ta'minlash,

biznes yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va respublikaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda.

Ushbu maqsadda muqobil tekshiruvlar va rejadan tashqari tekshiruvlarning barcha turlari bekor qilindi, tadbirkorlik faoliyati sohasidagi bir qator litsenziyalanadigan faoliyat turlari va ruxsat berish tartib-taomillari qisqartirildi hamda soddalashtirildi. Mazkur chora-tadbirlar mamlakatda ishbilarmonlik muhitini rivojlantirishga va O'zbekiston Respublikasining xalqaro miqyosdagi reytingiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

4. Axborot va qo'llab-quvvatlash: Davlat tadbirkorlik subyektlariga amaldagi qonunlar va qoidalarga rioya qilishda yordam berish uchun ma'lumot va yordam berishi mumkin. Bu muayyan qoidalarga qanday rioya qilish bo'yicha ko'rsatmalar berish, o'qitish va ta'lim dasturlarini taklif qilish va korxonalariga tartibga solish muhitini tushunishga yordam berish uchun resurslarni taqdim etishni o'z ichiga olishi mumkin.

5. Korxonalar tomonidan raqobatga qarshi xatti-harakatlarning oldini olish va bozor shaffofligini ta'minlash orqali raqobatni rivojlantirish. Mana shu maqsadni ko'zlagan holda O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 6-yanvarda "Raqobat to'g'risida"gi O'RQ-319-son Qonuni qabul qilingan. Ushbu Qonunning maqsadi tovar va moliya bozorlaridagi raqobat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Ushbu Qonunning 3-moddasida xo'jalik yurituvchi subyektlar, jismoniy shaxslar, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining O'zbekiston Respublikasi hududida va (yoki) undan tashqarida sodir etiladigan, O'zbekiston Respublikasidagi tovar va moliya bozorlarida raqobatning cheklanishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlariga nisbatan tatbiq etilishi belgilab qo'yilgan.¹²

6. Iste'molchilar va ishchilarni himoya qilish: Davlat iste'molchilar va ishchilarning huquqlarini himoya qilishda, shu jumladan iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va mehnat amaliyoti bo'yicha minimal standartlarni belgilovchi qoidalar orqali o'z roliga ega. Iste'molchi – bu mahsulot, ish yoki xizmatni shaxsiy iste'mol yoki foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda sotib oladigan yoki buyurtma qiladigan fuqaro hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-apreldagi "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-221-I-son Qonunining 4-moddasiga iste'molchilarning huquqlari sanab o'tilgan. Jumladan, Iste'molchilar quyidagi huquqlarga ega:

tovar (ish, xizmat) haqida, shuningdek, ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) haqida to'g'ri va to'liq ma'lumot olish;

tovar (ish, xizmat)ni erkin tanlash va uning tegishli darajada sifatli bo'lishi;

tovar (ish, xizmat)ning xavfsiz bo'lishi;

hayoti, sog'lig'i va mol-mulki uchun xavfli nuqsoni bo'lgan tovar (ish, xizmat), shuningdek, ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)ning g'ayriqonuniy harakati

¹² O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 6-yanvarda "Raqobat to'g'risida"gi O'RQ-319-son Qonuni. 3-modda.



(harakatsizligi) tufayli yetkazilgan moddiy ziyon, ma'naviy zararining to'liq hajmda qoplanishi;

buzilgan huquqlari yoki qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlari himoya qilinishini so'rab sudga, boshqa vakolatli davlat organlariga murojaat etish;

iste'molchilarning jamoat birlashmalarini tuzish.¹³

Ushbu huquqlarni himoya qilish davlatning tadbirkorlik subyektlari faoliyatini huquqiy tartibga solishdagi asosiy ko'zlangan maqsad hisoblanadi. Davlat iste'molchilarning ijtimoiy himoyaga muhtojlar toifasiga kiritilgan ayrim guruhlar uchun qonunchilik bilan savdo, maishiy xizmat va xizmat ko'rsatishning boshqa turlari bo'yicha imtiyozlar va afzalliklar belgilashi ham mumkin.

Xulosa qilib aytganda, davlat tadbirkorlik subyektlarining xavfsiz, adolatli va mas'uliyatli ishlashini ta'minlash, iste'molchilar, ishchilar va jamoatchilik manfaatlarini himoya qilish uchun tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish va qonunchilik.

Tadbirkorlik faoliyati mamlakat iqtisodiyotining asosiy tayanchi bo'lib, uning iqtisodiyot va ijtimoiy hayotni ta'minlashdagi ro'lini tartibga solishni davlat qonunchilik asosida nazorat qilish orqali amalga oshiradi. Umumiy ma'noda nazorat muayyan belgilangan qoida va me'yorlarga rioya etilishini ta'minlashda aks etadi. Shundan kelib chiqib, tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish muayyan vakolatli organlar tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan normalar asosida tadbirkorlik faoliyati subyektlari faoliyatini tekshirish va chora ko'rish shaklida amalga oshiriladi.

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

a) nazorat qiluvchi organlar faoliyatida qonuniylik, xolislik va oshkoralik, ya'ni boshqa shaxslarning xohishi va istaklaridan ularning subyektiv irodalaridan qat'i nazar, tekshirishlar nazorat qiluvchi organlar xodimlari tomonidan suiiste'molliklarsiz tadbirkorlik subyektlari faoliyatida tekshirishlar o'tkazishni tartibga soluvchi qonun normalari asosida amalga oshirishlari lozimligi;

b) yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

v) tadbirkorlik subyekti huquqlarining ustivorligi, unga muvofiq qonun hujjatlarida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq holda yuzaga keladigan barcha bartaraf etib bo'lmaydigan ziddiyatlar va noaniqliklar tadbirkorlik subyektining foydasiga talqin etiladi;

g) tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashmaslik.

Albatta, nazorat qilish tadbirkorlarning qonun bilan mustahkamlangan huquqlari va manfaatlariga zid bo'lishi, ularning faoliyatiga asossiz aralashishga olib kelmasligi lozim.

O'zbekiston Respublikasida mamlakat aholisining hayot darajasini oshirish uchun tadbirkorlik salohiyatini rivojlantirish, uning barqaror sur'atlarda o'sishini ta'minlash, mustaqil xo'jalik yuritish tashabbuskorligidan samarali foydalanishga imkon beruvchi institutsional asoslarini takomillashtirish kabi ahamiyatga molik ishlar amalga oshirib

¹³ O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-apreldagi "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-221-I-son Qonunining 4-moddasi.



kelinmoqda. Bunda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini davlat tomonidan iqtisodiy qo'llab-quvvatlash hamda huquqiy tartibga solish borasida izchil, har tomonlama o'ylangan ishlar bajarilayotganligini alohida ta'kidlab o'tishimiz lozim.

Ilmiy tadqiqot bo'yicha qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan takliflar.

Tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishda asosan soliq sohasini isloh qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jumladan, mehnatga haq to'lash fondiga nisbatan yuqori soliqlarning kamaytirilishi. Bunda tadbirkorlik subyektlarining faoliyatiga moddiy jihatdan juda katta yengillik hamda qo'shimcha daroman hisoblanadi. Daromad solig'i, yagona ijtimoiy to'lovning yanada pasaytirilishi maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari mamlakatimizda soliq yukining juda ham notekis taqsimlanganligi. Birinchi navbatda gap soliqqa tortishning soddalashtirilgan va umumiy tartibi orasidagi juda katta farq haqida ketmoqda (ya'ni kichik va yirik korxonalar orasida). Bir tartibdan ikkinchisiga o'tganda soliq yuki bir necha marta oshib ketishi mumkin. Bu esa biznesning o'sishiga to'sqinlik qiladi va milliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatini keskin pasaytiradi.

Shuningdek, O'zbekistonda tushumdan (aylanmadan) olinadigan soliqning mavjudligi hali hamon saqlanib qolinishi masalasini hal etish lozim. Bunday vaziyatda yechim yagona: tushum soliqlaridan voz kechib, qo'shilgan qiymat solig'ini joriy qilishdir.

Bilamizki, ma'muriy to'siqlar ko'pincha litsenziyalash, ruxsatnoma berish shaklida bo'ladi. Aynan mana shu tizimni imkon qadar isloh qilish tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishdagi eng muhim qadamlardan biriga aylangan bo'lar edi.

Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishda jumladan, imtiyoz va preferensiyalar taqdim etishning samarasizligini anglagan holda ularni amaliyotda qo'llamaslik, biznes subyektlariga tartibga solish yukining maksimal pasaytirilishi va tarmoqlarni tartibga soluvchi organlarning o'z sohasida raqobatni rivojlantirishdan manfaatdor ekanligini shart qilib qo'yish, tabiiy monopoliyalarning faoliyat sohasini qisqartirish va suiste'mol qilinishini oldini olish, raqobatga zid harakatlarga qarshi kurashishning takomillashgan huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqish kelgusida qonunchilikda amalga oshiriladigan ishlar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi.

1. O'zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 2-bo'lim. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari miliy bazasi: <http://www.lex.uz>
3. O'zbekiston Respublikasida soliq siyosati 2020-yil 1-yanvarda kuchga kirgan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.
4. O'zbekiston Respublikasining "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi O'RQ-701-son Qonuni.



5. O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 6-yanvarda "Raqobat to'g'risida"gi O'RQ-319-son Qonuni.
6. O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydagi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-328-son Qonuni.
 - II. Ilmiy adabiyotlar.
 7. Tadbirkorlik (biznes) huquqi. Mualliflar jamoasi. Darslik. Mas'ul moharrir: y.f.n., dots. X.Azizov – T.: TDYU, 2018. – 296 bet.
 8. Mualliflar jamoasi. Tadbirkorlik (biznes) huquqi. Darslik. Mas'ul muharrir: y.f.n., dots X.Azizov – T.: TDYU, 2018. -296 bet.
 9. Mualliflar jamoasi. Tadbirkorlik (biznes) huquqi. Darslik. Mas'ul moharrir: y.f.n., dots. X.Azizov – T.: TDYU, 2018. 243-244-betlar.
 10. Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqi: kasb-hunar kollejlari uchun darslik/ F.H.Otaxonov, X.V.Burxandxodjayeva, K.E. Mansurov, N.X.Muhamedova. -T.: "ILM ZIYO". 2010. -288 bet.
 - III. Xorijiy adabiyotlar.
 - II. I. V. Knyazeva. Tadbirkorlik: institutsional va huquq tartibini qo'yish aspekti. Chelyabinsk davlat universitetining xabarnomasi. 2009 yil. 26-son (164). Iqtisodiyot. Nashr. 22. S. 5-9.
 12. Формирование государственного регулирования малого бизнеса в Грузии Рамаз АБЕСАДЗЕ.
 13. <https://www.doingbusiness.org/content/dam/doingBusiness/media/Annual-Reports/English/DB14-Chapters/DB14-Research-on-the-effects-of-business-regulations.pdf>.
 14. Сорокин Александр Сергеевич - студент, факультет политологии, Санкт-Петербургский государственный университет, г. Санкт-Петербург.
 15. Liudmila Mykolaivna Akimova, PhD of economic science, assistant professor, assistant professor of the Department of finance and environmental sciences, National University of Water and Environment, Ukraine, Rivne, Str. Prykhodko, 75, educational building.